



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2022- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7 577,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.

1,0%

BTog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishslash

96,2%

CIshlab chiqaradigan
sanoat

2,2%

DElektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash

0,6%

ESuv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

2021- yil
yanvar-aprel2022- yil
yanvar-aprel**B**

146,8 %

B

26,1 %

C

108,2 %

C

108,9 %

D

119,0 %

D

73,3 %

E

117,2 %

E


85,2 %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat – 8,9 %, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 26,7 % ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 73,9 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 14,8 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 289,6 mldr. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,2 % ini tashkil etdi.

2021-yil
yanvar-aprel

94,7
%

2022-yil
yanvar-aprel

96,2
%



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,5 % (17,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,9 % (14,1 %) va quyi texnologiyalisi – 62,5 % (63,4 %)ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 63,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 9,1 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 180,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,6 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 36,9 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 116,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,2 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 87,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 36,1 ming litr 100 % spirit (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 24,9 % ga pasaygan), 18,7 ming tonna paxta tolasi (95,7 %) ishlab chiqarishda o'sish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	19,5	18,7	95,7
Pivo, ming litr	6687,0	5700,0	117,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	59,3	56,5	95,3
Tozalangan paxta yog'l tonna	4579	3668	80,1
Konyak spiriti – litr 100 % spirit	160,2	115,0	71,8
Tamaki, mln dona	2294,0	2889,5	126,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	206,3	246,2	119,4
Paxta tiviti tonna	1864,0	2382,1	127,8

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 6,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 160,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 154,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 689,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 214,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 212,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 991,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,7 % ni tashkil etgan bo'sha, uning fizik hajm indeksi 125,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 100,2 % ga o'sgan bo'sha, ishlab chiqarish hajmi 1 491,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 97,5% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 115,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 206,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 74,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 50,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 78,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 164,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,3 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	136959,5	93594,4	-43365,1
Qissiqlik energiyasi, ming gkal	3390107	3839812	449705

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	12 857,2	11 924,8	-932,4
To'qimachilik chiqindilari, tonna	2,3	-	-2,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	30,2	31,8	1,6

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 105,4 % ni va O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 7,3 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 450,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ni, uning jami sanoatdag'i ulushi 71,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-aprel

39,8%

2022- yil
yanvar-aprel

32,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-aprel

60,2%

2022- yil
yanvar-aprel

67,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,9 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 1,32%)ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 44,8 % ni, Urgut tumani 10,4 % ni, Tayloq tumani 9,4 % ni, Samarqand tumani 8,3 % ni, hamda Jomboy tumani 6,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (119,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ishtixon tumanida (197,0 %) hamda Paxtachi tumanida (183,1 %) qayd etildi.

Yanvar - Aprel

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 44,8 % shuningdek, Urgut 10,4 %, Tayloq 9,4 % ni, Samarqand tumanlarida 8,3 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 50,6 % shuningdek, tumanlardan Urgut 13,8 %, Tayloq 8,5 % ni, hamda Samarqand tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

967,4 mld. so'm

2020- yil yanvar-aprel

2 205,4 mld. so'm

2021- yil yanvar-aprel

3 677,4 mld. so'm

2022- yil yanvar-aprel

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq-ovqat
mahsulotlarining
ulushi

67,5%

01

2020- yil

103,6 %

02

2021- yil

116,4 %

03

2022- yil

125,2 %

Kattaqo'rg'on sh.

Samarqand sh.

Toyloq

Urgut

Nurobod

Samarqand

Paxtachi

Pastdarg'om

Payariq

Narpay

Qo'shrabot

Kattaqo'rg'on

Ishtixon

Jomboy

Bulung'ur

Oqdaryo

52,1

31,9

129,7

1 859,2

420,3

312,2

105,6

506,0

112,5

14,0

84,4

171,5

192,2

161,2

111,1

131,1

54,1

18,8

107,3

36,4

110,8

14,3

98,9

134,3

207,1

150,1

75,6

80,7

71,3

39,9

79,9


18,9

o'sish sur'ati

mld. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdag'i jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,8 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,7 % ni, Tayloq tumani esa 11,4 % ni tashkil etdi.



604,5 mlrd. so'm



2020- yil yanvar-aprel

1 455,1 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-aprel

1 773,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel



Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 45,1 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 11,7 % ni, Urgut tumani esa 8,6 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

4 522,7 mln. so'm

2021 yil

5 959,2 mln. so'm

2022- yil

7 577,0 mln. so'm



2020- yil

81,2 %

2021- yil

109,4 %

2022- yil

108,2 %

Kattaqo'rg'on sh.

Samarqand sh.

62,5

64,5

105,6

3 419,5

Toyloq

113,0

532,4

Urgut

103,6

650,7

Nurobod

120,1

141,6

Samarqand

101,2

560,9

Paxtachi

114,6

183,1

Pastdarg'om

108,5

244,7

Payariq

80,8

132,5

Narpay

110,2

191,2

Qo'shrabot

100,3

22,8

Kattaqo'rg'on

101,5

1187,1

Ishtixon

98,1

172,4

Jomboy

122,6

889,0

Bulung'ur

98,5

115,5

Oqdaryo

74,1

69,3


FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 725,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,0 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʼur tumanida (100,0 %), Qoʼshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʼrgʼon shahrida (93,1 %), Oqdaryo tumanida (83,5 %), Kattaqoʼrgʼon tumanida (80,7 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʼrsatdiki, Narpay tumanida(14,8 %), Paxtachi (19,5 %), Ishtixon (19,9 %), Tayloq (21,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda viloyatimizda 8 274 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 741 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Samarqand shahriga, 1 204 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 753 tasi (9,0 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Kattaqo'r'g'on sh.

31	301
----	-----

Samarqand sh.

110	1741
-----	------

Toyloq

38	376
----	-----

Urgut

74	1204
----	------

Nurobod

14	186
----	-----

Samarqand

61	744
----	-----

Paxtachi

19	228
----	-----

Pastdarg'om

92	734
----	-----

Payariq

39	366
----	-----

Narpay

20	222
----	-----

Qo'shrabot

19	171
----	-----

Kattaqo'r'g'on

36	386
----	-----

Ishtixon

49	520
----	-----

Jomboy

33	408
----	-----

Bulung'ur

30	319
----	-----

Oqdaryo

33	368
----	-----

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan

Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

495 dona

2021- yil

718 dona

2022- yil

698 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

5 999 dona

2021- yil

7 390 dona

2022- yil

8 274 dona